

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURUDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 05/07.06.2024. Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

MUSURMANKULOV ZUXIRIDDIN SHUXRATOVICH

**BUZILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINI MONITORING QILISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoring

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 528.063.3:631.4:332.54 (575.111)

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Musurmankulov Zuxiriddin Shuxratovich

Buzilgan qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilish usullarini
takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida)..... 3

Мусурманкулов Зухириддин Шухратович

Совершенствование методов мониторинга нарушенных
сельскохозяйственных угодий (на примере Ташкентской области)..... 21

Musurmankulov, Zukhiriddin Shukhratovich

Improving of methods for monitoring disturbed agricultural lands (on the
example of the Tashkent region)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURUDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc 05/07.06.2024. Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

MUSURMANKULOV ZUXIRIDDIN SHUXRATOVICH

**BUZILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINI MONITORING QILISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Toshkent viloyati misolida)**

06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PHD/Qx863 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalsh institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Babajanov Allabergan Ro‘zimovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Qurvantoyev Raxmontoy
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Narbayev Sharofatdin Kengeshovich
Iqtisod fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning «7» avgust 2025 yil soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (553374 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «22» iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil «22» iyul dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.B. Raupova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S. Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

U. Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha umumiy quruqlik maydoni 13,2 mlrd. gektarni tashkil etadi. Bundan 342 mln. gektari sug'oriladigan maydonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda¹. Bir qancha salbiy antropogen ta'sirlar natijasida sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining buzilish holatlari uchramoqda. Aholi sonining yildan yilga oshishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni oshirmoqda, bu esa o'z navbatida sug'oriladigan qishloq xo'jaligidan yanada samarali foydalanishni talab qiladi. Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi maydonlaridan samarali foydalanish masalasi monitoring ishlarini takomillashtirish vazifasi bilan uzviy bog'liqligi bu yo'nalishni dolzarb muammoga aylantiradi.

Jahonda qishloq xo'jaligi yerlarining 2 mlrd gektari foydalanishga yaroqsiz bo'lib, shundan 100 mln gektari buzilgan. BMTning ma'lumotiga asosan, dunyo bo'yicha yiliga qariyb 6 mln. gektar yer turli sabablar bilan foydalanishdan chiqib, yaroqsiz holga kelib qolmoqda². Shuningdek, sanoat va transport sohasida amalga oshirilayotgan qurilishlar, yer osti boyliklarini qazib olish jarayonida hosil bo'layotgan karyerlar va tuproq uyumlari jadal sur'atlar bilan qishloq xo'jaligi ekin yerlarini siqib chiqarib, haydaladigan yerlar ularning ostida qolib ketmoqda.

Yurtimizda ham aholi soni jadal o'sib borayotgan hozirgi davrda, oziq-ovqat yetishtirishning asosiy bazasi hisoblangan yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, buzilgan yerlarni foydalanishga qaytarish orqali sug'oriladigan yer maydonlaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Respublikamizda bugungi kunda qazib olish faoliyati natijasida 31987 gektar buzilgan yerlar mavjudligi aniqlanib, ulardan 29965 gektari foydalanishda ekanligi aniqlandi. Shuningdek, hududlarda qishloq xo'jaligi yerlaridan muhandislik infratuzilma obyektlari o'tkazilishi, zovurlar qazilishi, yerdan foydalanuvchilarning ma'sulyatsizligi oqibatida va boshqa sabablarga ko'ra buzilgan 2493 gektar yer maydonlari aniqlandi. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish dolzarb vazifa bo'lib turgan bugungi kunda sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridagi buzilgan maydonlarni zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamini masofadan turib aniqlash usulini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq qabul qilingan "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi"da va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 14-yanvardagi №-22-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga

¹ <https://doi.org/10.4060/cb7654ru>

² www.cer.uz

soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qarori hamda yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda ustuvor vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Buzilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish, tiklash va foydalanishga kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish borasida mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, xorijlik olimlar S.Volkov, M.Pankov, A.Varlamov, V.Kovda, S.Galchenko, G.Shalabin, S.Tkachuk, V.Denisov, O.Karamatov, A.Jelyaskov, G.Sims, P.Loyko, R.Lal va boshqalarning, shuningdek mamlakatimizda esa mazkur muammo bo'yicha S.Avezbaev, R.Turaev, X.Nomozov, A.Abduganiev, X.Shukurbaev, G.Yuldashev, A.Babajanov, S.Azimboyev, G.Tolipov, R.Qo'ziyev, B.Inamov, O.Ramazonov, O.Davronov, M.Mamarasulov, Sh.Narbayev kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Xususan, buzilgan sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarini zamonaviy texnologiyalar asosida masofadan turib aniqlash va uning miqdor ko'rsatkichlariga oid axborotlarni jamlash yo'nalishlari ustida muntazam taqqiqotlar olib borish zarurligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida" gi 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmonlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PQ-465-son "2023-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati ushbu dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Tadqiqot qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-aprelda "Buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, tuproqning unumdor qatlamini saqlash va undan oqilona foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 169-son qaroriga muvofiq «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi asosida olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Zamonaviy texnologiyalardan, xususan masofadan tadqiq qilish asosida buzilgan yerlarni monitoring qilish usullarini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

buzilgan yer maydonlarini xaritalashtirishning takomillashgan texnologik sxemasini ishlab chiqish va asoslash;

buzilgan yer monitoringini yuritishga oid xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlarini belgilash;

monitoring qilish asosida buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini qayta tiklash mexanizimini takomillashtirish;

buzilgan yer maydonlarini masofadan zondlash yordamida aniqlash va uning monitoringini yuritish algoritimini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligining buzilgan yer maydonlarini aniqlovchi hamda uning monitoringini yurituvchi maxsus geovizualashtiruvchi interfaol Veb-platforma ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyatining sug'oriladigan mintaqasidagi buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib sug'oriladigan mintaqada tarqalgan buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini monitoring qilish, bunday yerlarni masofadan tadqiq qilish mexanizimlarini o'rganish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida statistik guruhlash, qiyosiy taqqoslash, monografik kuzatuv, statistik tahlil qilish, matematik modellashtirish, mantiqiy va abstrakt fikrlash kabi uslublardan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'oriladigan mintaqadagi buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini monitoringini yuritish va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan xaritalashtirishning sakkiz bosqichli texnologik sxemasi ishlab chiqildi;

yangidan yaratilgan sakkiz bosqichli texnologik sxema hamda monitoring natijalari asosida buzilgan yerlarni qayta tiklash mexanizimi takomillashtirildi;

korrelyatsion bog'liqlikni e'tiborga olgan holda buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini masofadan tadqiq qilish va ularni monitoringini yuritish algoritimi ishlab chiqildi;

veb dasturlash asosida buzilgan qishloq xo'jaligi yerlarini geovizualashtirishga va tezkor aniqlashga imkon beruvchi maxsus "TerraRevive" veb-platforma ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini monitoringini yuritish hamda qayta tiklash uchun zarur bo'ladigan xaritalashtirish ishlarining yangi texnologik sxemasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

yangidan yaratilgan sakkiz bosqichli texnologik sxema hamda monitoring natijalari asosida buzilgan qishloq xo'jaligining sug'oriladigan yer maydonlarini qayta tiklash mexanizimi takomillashtirildi va amaliyotga joriy etildi;

buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini masofadan zondlash orqali aniqlash va monitoringini yuritishning maxsus algoritmi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

qishloq xo'jaligining buzilgan sug'oriladigan yer maydonlarini geovizuallashtirishga imkon beruvchi yangi veb-platforma yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliliği. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Davlat statistika qo'mitalarining ma'lumotlaridan foydalanilganligi, yer tuzish sohasi olimlarining buzilgan yerlarni rekultivatsiyalash, yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish, foydalanishga qaytariladigan maydonlarni oqilona tashkil etish bo'yicha ilmiy – amaliy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqotlar jarayonida qo'llanilgan metodologik yondashuvlar va usullarning ilmiy asoslanganligi, axborot bazasini rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'z navbatida buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini monitoringini yuritish va qayta tiklash usullari hamda mexanizmlarini shakllantirish, rivojlantirish, shuningdek ularni takomillashtirishga oid nazariy va ilmiy-uslubiy yondashuvlarni yaratilganligi hamda ilmiy tadqiqotlarda ulardan keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan, shuningdek yangi veb platformadan mamlakatimizda buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlari monitoringini yuritishda, bunday yerlarni tezkor aniqlash va ular holatini holisona baholash orqali bunday buzilga yerlarni tiklashga oid samarali chora tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratilganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Rekultivatsiyalash ishlarini tashkil qilish uchun buzilgan yer maydonlarini aniqlash usulini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolida) bo'yicha olingan natijalar asosida:

buzilgan yer maydonlarini xaritalashtirishning sakkiz bosqichli texnologiya sxemasi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining Toshkent viloyati boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/06-04-83-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida, Toshkent viloyatidagi buzilgan yer maydonlarini standartlashtirilgan bir tizimda xaritalashtirish imkoniyati yaratildi;

buzilgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarini qayta tiklash mexanizmi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining Toshkent viloyati boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/06-04-83-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida, Buzilgan qishloq xo'jaligining sug'oriladigan yer maydonlarini qayta tiklash imkoniyati yaratildi;

buzilgan yer maydonlarini masofadan turib aniqlash va uning monitoringini yuritish algoritmi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining Toshkent viloyati boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan. (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/06-04-83-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida, buzilgan yer maydonlarini masofadan turib aniqlash va uning monitoringi yuritish imkoniyati yo'lga qo'yildi;

buzilgan qishloq xo‘jaligining sug‘oriladigan yer maydonlari geovizuallashtiruvchi “TerraRevive” nomli veb platforma O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining Toshkent viloyati boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan. (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 4-martdagi 05/06-04-83-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida, buzilgan qishloq xo‘jaligining sug‘oriladigan yer maydonlari veb platforma orqali kuzatish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari «O‘zdavyerloyiha» DILning ilmiy-texnik kengashida ko‘rib chiqilgan va ijobiy baholangan, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shundan 1 ta tavsiyanoma, 1 ta dasturiy ta‘minot guvohnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiq etish ro‘yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning «**Buzilgan qishloq xo‘jaligi yerlari va ularning monitoringini yuritishning nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida antropogen omillar ta‘sirida qishloq xo‘jaligi yerlarning buzilishi tabiiy xususiyatlariga ta‘siri nazariy va huquqiy asoslari, jahonda va mamlakatimizda sanoat va antropogen omillar ta‘sirida buzilgan yerlar ularni monitoring qilish usullari mexanizmi va qisqacha tarixiy qiyosiy ma’lumotlar tahlili keltirilgan.

Yer maydonlarida yuz beradigan barcha o‘zgarishlarda antropogen ta‘sir katta o‘rin tutadi. Shu sababli ham har qanday ijobiy yoki salbiy o‘zgarishlar asosini birinchi navbatda ushbu omildan qidirish zarur. Berilgan rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekiston Respublikasining umumiy yer maydoni, 2024-yil 1-yanvar holatiga, 44892.4 ming gektarni tashkil etadi. Respublikamiz yer maydonlaridan oqilona foydalanish eng ustuvor vazifalardan biridir. Ammo, turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra buzilgan maydonlar xajmi yildan yilga ortib bormoqda. Buning asosiy sabablari deb, yer fondi yerlaridan maqsadsiz va noto‘g‘ri

foydalanish; o'z vaqtida monitoring qilmaslik; sanoat, transport va boshqa maqsadlar uchun vaqtincha ajratilgan maydonlarni birlamchi holatiga keltirib o'z vaqtida qaytarilmayotganligidir.

Xususan, olingan ma'lumotlarga qaraganda, hozirda birgina Toshkent viloyatida yer osti qazilma boyliklarini qazib olish ishlari bilan shug'ullanuvchi 140 ta sanoat korxonalari mavjud. 2024-yilda bu korxonalar umumiy hisobda 324.2 gektar buzilgan maydonni rekultivatsiya qilib topshirishi zarur. Buning uchun buzilgan yerlarning mavjud holati xaqida ma'lumotlar zaruriyati foydo bo'ladi.

Tadqiqot obyekti hisoblangan Toshkent viloyati Ohangaron tumanlaridagi ba'zi konturlarda olib borildi. Monitoring ishlari 2001-yildan 2021-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi masofadan zondlash materiallari yordamida tahlil qilinib, quyidagi rasmda muallif tomonidan sxemalashtirildi.




1-rasm. Masofadan zondlash materiallari asosida 2001-2021 yillar oralig'ida ekin yerlarining kamayish dinamikasi.

Izoh: Muallif tomonidan yaratilgan.

O'rganishlar natijasida Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi ekin yer maydonlarining yaroqsiz holga kelishining asosiy sabablaridan sanoat chiqindilar tashlanishi, mahalliy chiqindilar tashlanishi, belgilanmagan hududlarda baliqchilik ko'llarini yaratish, suv bosishi, zax bosishi, cho'llanish-o'rmonsizlanish, sug'orma dehqonchlik sharoitida yerlarning ikkilamchi sho'rlanishi, tog' va tog' oldi hududlardagi tuproqlarning suv va irrigatsiya eroziyasiga uchrashi, intensiv ko'chma chorvachilik hududlarida yaylovlarning defilyatsiyaga uchrashi, yerlarning qishloq xo'jaligi va sanoatda o'zlashtirishdagi texnogen cho'llanishi hamda agrokimyoviy vositalar qo'llanilishi, kabi sabablar mavjudligi aniqlandi. Noqishloq xo'jaligi qurilishi yoki boshqa maqsadlar uchun ekin yer maydonidan yer ajratish natijasida 2001-yildan 2021-yilga qariyb 5 ming ga yer maydoni Toshkent viloyatining birgina Ohangaron tumani ekin yerlarining hisobidan chiqib ketgan. Buning natijasida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish keyingi yillarda 12 % ga kamayganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Buzilgan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarini qayta tiklashning mavjud holati**” deb nomlangan ikkinchi bobida Respublikamizdagi mavjud buzilgan maydonlar holati o‘rganilib tahlil qilingan. Undan tashqari buzilgan qishloq xo‘jaligi yerlarini rekultivatsiya qilishning loyihaviy bosqichlari keltirilgan.

Tadqiqot obyektidagi 2024 va 2025- yillarda rekultivatsiya qilinishi lozim bo‘lgan maydonlarning tumanlar bo‘yicha tarqalishi o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. Toshkent viloyatida 2024 va 2025- yillarda rekultivatsiya qilinishi lozim bo‘lgan maydonlarning tumanlar bo‘yicha tarqalishi


Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligi ma’lumotlari

Tadqiqotlardan ko‘rishimiz mumkinki, Tashkent viloyati bo‘yicha buzilgan qishloq xo‘jaligi yerlari miqdorining asosiy qismi Ohangaron tumaniga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning Uchinchi bobi uch qismga bo‘lingan. “**Buzilgan yer maydonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida aniqlash usulini takomillashtirish**” deb nomlangan bo‘limida yurtimizda mavjud qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yer maydonlarida ro‘y berayotgan salbiy xolatlarining oldini olish va cho‘llanishga qarshi kurash tizimini takomillashtirish hamda ushbu yerlarni qayta tiklash ishlarini amalga oshirish tadbirlarini ko‘paytirish bugungi kunning muhim vazifalari keltirilgan.

Tahlillarga ko‘ra respublika bo‘yicha qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yer maydonlarining qariyb 42 foizi turli darajada degradatsiyalarga uchragan. Bu ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida qariyb 85 foizni, Sirdaryo viloyatida 75 foizni va Buxoro viloyatida 71 foizni tashkil qiladi. Degradatsiyaga uchragan yerlarning xaritalarini yaratishda asosan joyning fotosurati yoki qishloq xo‘jaligi xaritasi va kosmosurati kerak bo‘ladi, ushbu xaritada tegishli obyektlar bitta kartada jamlanadi va degradatsiyaga uchragan yerlar bo‘yicha atributiv

ma'lumotlari beriladi. Bundan tashqari joyning geografik joylashuvini aniq bilish uchun vektor ma'lumotlar geofazoviy bog'lanadi. Bu esa vektor qatlamlarni masshtab bo'yicha orientirlash va geografik joylashuviga aniq borib tushishini ta'minlash imkonini beradi.



3-rasm. Qurilish chiqindilari natijasida buzilgan qishloq xo'jaligi yerlari

Mazkur xaritada Toshkent viloyati miqyosida qishloq xo'jaligi sug'oriladigan yer maydonlari monitoring qilinib, Toshkent viloyati bo'yicha jami 6669,45 gektar yer maydoni qayta tiklashga muhtojligi aniqlandi. Aniqlangan 6669,45 gektar maydondan 809 gektari buzilgan, 5739,45 gektari fodalanishdan chiqqaniligi aniqlangan.

Xaritaning maqsadini belgilab olish natijasida, xaritaga olinayotgan hudud uchun tanlangan manbalar va joyning geografik xususiyatlari bilan tanishish, shuningdek, ushbu mavzuda yaratilgan xaritalarni tuzish tajribasi, uning asosiy o'zgarish qonuniyatlari dastlabki xaritaning dasturini tuzishga imkon beradi. Odatda mavzuli xaritalarni tuzish, xususan qishloq xo'jaligi xaritalarini yaratish uchun mo'ljallangan dastur, xaritani tuzish qoidalari va ko'rsatmalarini qanday tartibda bajarish bo'yicha aniq ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Oddiy so'z bilan aytganda, bu xaritani qanday yaratish va bunda qanday texnologiyadan foydalanish kerakligini aniqlab berish zarurligini ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqotlar va takliflarga ko'ra, foydalanishga yaroqsiz bo'lgan yer maydonlari xaritasini yaratish usuli ishlab

chiqildi. foydalanishdan chiqib ketgan va degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlar maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlarning raqamli ko'rinishdagi xartasini yaratish bosqichlari.




4-rasm. Buzilgan yer maydonlarining xartasini kameral sharoitda ishlab chiqish bo'yicha metodologik bosqichlar

Hozirgi kunda raqamli va elektron xaritalar tuzish uchun GAT oilasiga mansub bo'lgan dasturiy ta'minotlarning juda ko'p turlari mavjud (Global Mapper, ArgGIS, Panorama, MapInfo va boshqalar). Tadqiqot davomida degradatsiyaga uchragan maydonlar xartasini yaratish uchun ESRI kompaniyasiga tegishli bo'lgan ArgGIS dasturiy ta'minotidan foydalanildi. Foydalanishga yaroqsiz sug'oriladigan yerlarning joylashgan o'rnini GNSS priyomniklari orqali aniqlanadi va elektron xaritaga ko'chiriladi.

Ushbu ma'lumotlar oldindan tayyorlangan qaydnoma va tadqiqot joyida aniqlangan qo'shimcha ma'lumotlar asosida yaratiladi. Mavzuli xaritalarni yaratish va xaritaning dizayn elementlarini ishlab chiqish, odatda degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarni elektron xaritalarini loyihasini-tuzishga qaratilgan ilmiy

tadqiqotlarni tahlil qilgan holda hamda yuqorida keltirilgan bosqichlarni umumlashtirish natijasida degradasiya xartasining yaratish texnologik tizimi ishlab chiqildi.



5-rasm. Buzilgan yerlarning xartasini yaratish bo'yicha texnologik sxema

Tadqiqot davomida degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarni yaratishda GIS texnologiyalarining afzalliklari modellari keltirilgan. Unda GIS texnologiyalarining afzalliklari, ushbu modellarda - geoxborot tizimlari va texnologiyalari oilasiga mansub dasturiy ta'minotlar asosida tuzilgan mavzuli xaritalarning o'quvchanligi, tushunarligi, sifati va shu kabi afzalliklari zamon talablariga javob berishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi.

Respublikada qishloq xo'jaligi va uning asosi bo'lgan yer boshqa sohalardan farqli o'laroq, bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish vositasi vazifasini bajarishi bilan birgalikda tabiat omillari hamda iqlim o'zgarishlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, respublikamiz sharoitida suv resurslaridan foydalanish bilan uzviy aloqadorligi masalaga jiddiy yondashuvlarni talab qiladi.




6-rasm. Buzilgan yerlarni foydalanishga kiritish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmi.

Izoh: Muallif tomonidan yaratilgan.

Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish bilan bog'liq munosabatlardagi murakkab bo'lgan masalalardan yana bittasi, bu - ko'plab rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi yerlari xususiy mulk obyekti hisoblanishi va ushbu holatni respublikamiz sharoitida ham qo'llash amaliyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruratidir. Chunki, qishloq xo'jaligi yerlari mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom – ashyosi bilan ta'minlaydi. Shu sababli buzilgan sug'oriladigan yerlarni foydalanishga kiritishni davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash yoʻnalishlari va amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish lozim boʻladi.

6-rasmda keltirilgan davlat tomonidan qoʻllab quvvatlash yoʻnalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari degradatsiyaga uchragan sugʻoriladigan yerlarni tiklash va foydalanishga kiritishda yerdan foydalanuvchi subyektlarni ragʻbatlantirishni nazarda tutadi. Yerdan foydalanishda huquqiy hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish va takomillashtirib borishni zamon talab qilgali boʻis degradatsiyaga uchragan sugʻoriladigan yerlarni qaytadan foydalanishga kiritish jarayonini tartibga solish mustahkam asosda amal qiluvchi qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinishi lozim boʻladi.




7-8-rasm. 2016-iyul va 2024-iyul sanalaridagi kosmik suratlarni “change detection” orqali taqqoslash oynasi

Yer resurslarini degradatsiyadan saqlash va rekultivatsiya qilish masalasi Oʻzbekiston uchun nihoyatda dolzarb va ustuvor yoʻnalishlardan biridir. Tadqiqotlarning koʻrsatishicha, sunʼiy yoʻldosh tasvirlari va GIS texnologiyalaridan samarali foydalanish natijasida yer qoplamidagi oʻzgarishlarni real vaqt rejimida kuzatish, degradatsiya jarayonlarini aniqlash va rekultivatsiya ishlarini boshqarish imkoniyatlari yaratiladi. Toshkent viloyati misolida Sentinel-2 maʼlumotlari yordamida olib borilgan monitoring ishlari bu borada dolzarb va zamonaviy yechimlardan biri sifatida namoyon boʻlmoqda ArcGIS Pro va experience.arcgis.com platformalari Sentinel-2 sunʼiy yoʻldosh tasvirlaridan

foydalanish orqali yer qoplamini yuqori aniqlikda kuzatish imkonini yaratadi. Bu texnologiyalar o'z imkoniyatlari va funksional jihatlari bilan yer resurslarini monitoring qilish jarayonida muhim afzalliklarga ega.

Uzoq yillik tahlil esa ekologik tizimning barqarorligini aniqlash, degradatsiya sur'atlarini baholash, o'zgarish sabablarini o'rganish va bashorat qilishga yordam beradi. Bu holat, masalan, o'rmonlarning qisqarishi, tuproqning eroziyaga uchrashi yoki suv resurslarining kamayishi kabi holatlarni aniqlash uchun juda foydali bo'lishi mumkin



9-rasm. TerraReve platformasining uzoq yillik ma'lumotlarni tahlil qilish oynasi.

Platformada mavjud bo'lgan **3D analiz, Land Use/Land Cover (LULC)** ma'lumotlari yordamida yer qoplamini turli kategoriyalarda ajratish va tahlil qilish mumkin. Masalan, suv, o'rmon, ekin maydonlari, qurilgan hududlar va yalang'och tuproqlar kabi kategoriyalar bo'yicha yer qoplamining turlarini ajratish va monitoring qilish osonlashadi. Bu imkoniyat, ayniqsa, urbanizatsiya jarayonlarini, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qishloq xo'jalik hududlarining kengayishi yoki qisqarishini kuzatish uchun juda qulaydir. 3D analiz esa hududlarning topografik o'zgarishlarini chuqurroq ko'rishga va bu o'zgarishlarning degradatsiya jarayonlariga ta'sirini aniqlashga yordam beradi

O'zgarishlarni kuzatish va ikki xil manba (sun'iy yo'ldosh tasvirlari va nazorat nuqtalaridagi GPS/GNSS ma'lumotlari) o'rtasidagi o'xshashlikni baholash uchun korelyatsiya tahlili qo'llanildi. Korelyatsiya koeffitsiyenti yer qoplamidagi o'zgarishlarning kosmik tasvirlardan olingan qiymatlari bilan joylarda to'plangan qiymatlar orasidagi bog'liqlik darajasini ko'rsatadi. Korelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0.91 ga teng bo'lib, bu ikki to'plam o'rtasida yuqori darajada bog'liqlik borligini anglatadi.


Korelyatsiya koeffitsiyenti, r , quyidagi formula yordamida hisoblandi:

$$r = \frac{n \sum XY - \sum X \sum Y}{\sqrt{(n \sum X^2 - (\sum X)^2)(n \sum Y^2 - (\sum Y)^2)}} \quad (1)$$

bu yerda: n – nuqtalar soni (bizning holatda 120),

X va Y – mos ravishda tasvirlardan olingan ma'lumotlar va GNSS yoki GPS o'lchovlar qiymatlari.

Korrelyatsiya natijasida aniqlangan yuqori bog'liqlik ArcGIS Pro va Sentinel-2 ma'lumotlarining ishonchliligini tasdiqlaydi .



10-rasm. O'rtacha kvadrat xatolik (Mean Squared Error - MSE).

Korrelyatsiya koeffitsiyentini qo'llash bilan birga, o'rtacha kvadrat xatolik (MSE) yordamida sun'iy yo'ldosh tasvirlari bilan joylarda yig'ilgan nuqta ma'lumotlari o'rtasidagi farqlarni ham tahlil qilindi. MSE xatolarni aniqlashda yordam beradi va tasvir ma'lumotlari qanchalik aniq ekanligini ko'rsatadi.

MSE quyidagicha hisoblandi:

$$MSE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (X_i - Y_i)^2 \quad (2)$$

bu yerda:

X_i va Y_i – tasvirlardan olingan qiymatlar va joylarda o'lchangan nuqta qiymatlari,

N – nuqtalar soni (120 ta).

MSE qiymati qanchalik kichik bo'lsa, tasvir ma'lumotlari shunchalik aniq hisoblanadi.

Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2)

Natijalar qanchalik bir-biriga yaqinligini yanada aniqroq baholash uchun determinatsiya koeffitsiyenti yoki R² qiymati ham hisoblandi. R² qiymati orqali tasvirlar va nazorat nuqtalari ma'lumotlari orasidagi o'xshashlikni umumiy foizda ifodalash mumkin.


Determinatsiya koeffitsiyenti quyidagicha hisoblandi:

$$R^2 = 1 - \frac{\sum(X_i - Y_i)^2}{\sum(Y_i - \bar{Y})^2} \quad (3)$$

bu yerda:

X_i – tasvir ma'lumotlari, Y_i – nazorat nuqtalari ma'lumotlari, Y' – nuqtalarning o'rtacha qiymati.

Agar R² qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, bu, tasvirlar va nazorat nuqtalari o'rtasidagi moslik yuqori ekanini anglatadi (12-rasm).



11-rasm. Ma'lumotlarni bir-biriga yaqinlik tahlilining diagrammasi.

Tahlillarni tanlashda tasvirlar bilan real vaqt ma'lumotlari orasidagi aniq bog'liqlikni aniqlash, xatoliklarni hisoblash va umumiy o'xshashlik darajasini ko'rsatish maqsad qilingan. Korrelyatsiya koeffitsiyenti va R² yer qoplamidagi o'zgarishlarni aniq baholashda asosiy rol o'ynaydi. MSE esa xatolarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib berishi bilan tasvirlar ishonchliligini mustahkamlash uchun qo'llandi. Shu statistika usullari orqali ma'lumotlar bir-biriga yaqinligini, va o'zgarishlar sezilarli ekanligini baholashda keng qo'llanildi.

Xulosalar

1. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishi natijasida 31987 gektar buzilgan yer maydonlari mavjudligi aniqlanib, ulardan 29965 gektari foydalanishda ekanligi, shuningdek bir qancha sabablarga ko'ra buzilgan 2493 gektar qishloq xo'jaligi yerlari mavjudligi aniqlandi. Bu esa Respublikamiz yer fondidan foydalanish jarayonini muntazam monitoring qilib borishni taqazo etadi.

2. Noqishloq xo‘jaligi qurilishi yoki boshqa maqsadlar uchun ekin yer maydonidan yer ajratish natijasida 2001-yildan 2021-yilga qadar qariyb 5 ming ga yer maydoni Toshkent viloyati Ohangaron tumanida ekin yerlari hisobidan chiqib ketganligi, buning natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish 12 % ga kamayganligini ko‘rsatadi.

3. Qishloq xo‘jaligidagi buzilgan maydonlarni masofadan aniqlash, buzilgan qishloq xo‘jaligi maydonlarning monitoringini yuritish, buzilgan qishloq xo‘jaligi maydonlari haqida atributiv ma’lumotlarni eksport qilish, 2016/2024-yillardagi kosmik suratlarni geostatik tahlil qilish uchun xizmat qiladigan “TerraRevive” nomli veb platformasi ishlab chiqildi.

4. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan jami 6669,45 gektar yer maydoni holati yomonlashganligi aniqlandi. Ushbu maydonlarning 809 gektari buzilgan, 5739,45 gektari foydalanishdan chiqqan. Bu holat qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan foydalanish samaradorligining pastligini hamda uzluksiz monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

5. Ohangaron tumanining sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarida jami 7 ta (sanoat korxonalari ta’sirida, zovurlarni tozalash natijasida, avtomobil yo‘llarini qurish natijasida, qurilish chiqindilari natijasida) buzilgan yerlar mavjudligi aniqlandi. Aniqlangan ma’lumotlar asosida qishloq xo‘jaligi yerlarini buzilishga olib keladigan sabablarning chiziqli va maydonli turkumlanish sxemasi ishlab chiqildi.

6. Korrelyatsion bog‘liqlikni inobatga olgan holda Ohangaron tumanining sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonlarida jami 74 gektar buzilgan qishloq xo‘jalik yer maydonlari mavjudligi masofadan aniqlandi, hamda aniqlangan buzilgan qishloq xo‘jaligi maydonlarining monitoringini yuritish algoritimi ishlab chiqildi.

7. Buzilgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonlaridan foydalanuvchilarni rag‘batlantirishni nazarda nazarga tutgan buzilgan yer maydonlarini foydalanishga kiritishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilib foydalanish uchun tavsiya etiladi.

8. Olingan ma’lumotlar, ishlab chiqilgan veb platforma hamda tavsiyalar ishlab chiqarish amaliyotidan tashqari oliy o‘quv yurtlarida talaba va magistrantlar uchun “Yer tuzish”, “Yer tuzishni loyihalash”, “Yer monitoringi” “Melioratsiya va yerlarni rekultivatsiyalash” kabi fanlardan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishda joriy qilish tavsiya etiladi.

9. Sanoat ishlab chiqarishi hamda boshqa salbiy antropogen ta’sirlar natijasida qishloq xo‘jaligidagi buzilgan maydonlarni rekultivatsiya qilishning 7 ta loyihaviy (shartnoma > dala tayyorgarlik ishlari > dala ishlari > topografik syomka > kameral ishlari > texnik hisob-kitob > iqtisodiy hisob-kitob) bosqichlari ketma-ketligi foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА БАЗЕ НАУЧНОГО СОВЕТА,
DSc 05/07.06.2024.QX.13.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**«УЗГИПРОЗЕМ» ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАУЧНО-ПРОЕКТНЫЙ
ИНСТИТУТ**

МУСУРМАНКУЛОВ ЗУХИРИДДИН ШУХРАТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ МОНИТОРИНГА
НАРУШЕННЫХ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ УГОДИЙ
(на примере Ташкентской области)**

06.01.10 – «Землеустройство, кадастр и мониторинг земель»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.1.PHD/Qx863.

Диссертация выполнена в государственном научно-проектном институте «Узгипрозем».

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском(резюме)) на сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Бабаджанов Аллаберган Рузимович
доктор сельскохозяйственных наук, доцент

Официальные оппоненты:

Курвантоев Рахмонтой
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Нарбаев Шарафатдин Кенгешович
Доктор философии по экономическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация:

**Национальный университет Узбекистана
Имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится « 7 » август 2025 года в 12⁰⁰. часов на заседании разового Научного совета на базе Научного совета № DSc.05/07.06.2024.QX.13.03 при Ташкентском Государственном аграрном университете. (Адрес: 100164, Ташкентская область., Кибрайский район, ул. Университетская, дом №2. Тел.: (99871) 260-48-00, факс: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсно центре Ташкентского государственного аграрного университета (регистрированный номер № 553374). Адрес: 100164, Ташкентская область, Кибрайский район, улица. Университетская, дом № 2. Телефон.: (99871) 260-48-00.

Автореферат диссертации разослан «22» июль 2025 года.

(Протокол реестра № 2 от «22» июль 2025 года).



Н.Б.Раупова
Председатель разового научного
совета по присуждению учёных
степеней, д.б.н., профессор

Г.С.Содикова
Учёный секретарь разового
научного совета по присуждению
учёных степеней, к.б.н., доцент

У.Норкулов
Председатель научного семинара
при разовом научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.с.х.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Общая площадь суши в мире составляет 13,2 миллиарда км². гектаров. Из них 342 млн. на долю гектаров приходится орошаемых земель¹ Случаи деградации орошаемых сельскохозяйственных угодий в результате ряда негативных антропогенных воздействий отстой. Ежегодный прирост населения также увеличивает спрос на продукты питания, что, в свою очередь, требует более эффективного использования орошаемого сельского хозяйства. Актуальной проблемой данного направления является то, что вопрос эффективного использования орошаемых сельскохозяйственных угодий неразрывно связан с задачей совершенствования мониторинговой работы.

В мире 2 миллиарда гектаров сельскохозяйственных угодий непригодны для использования, из них 100 миллионов гектаров испорчены. По данным ООН, во всем мире ежегодно происходит около 6 млн. гектары земли выходят из употребления и приходят в негодность по разным причинам². Кроме того, строительство, осуществляемое в промышленном и транспортном секторах, карьеры и земляные насыпи, образующиеся при добыче полезных ископаемых, стремительными темпами вытесняют сельскохозяйственные угодья, а пахотные земли оказываются под ними. В настоящее время, когда численность населения страны стремительно растет, важно рациональное и эффективное использование земельных ресурсов, являющихся основной базой для производства продуктов питания, Правильное использование орошаемых земель путем возвращения нарушенных земель в пользование.

В условиях стремительного роста численности населения в нашей стране особенно актуальным становится рациональное и эффективное использование земельных ресурсов, которые являются основной базой для производства продовольствия, а также восстановление деградированных земель и правильное управление орошаемыми земельными угодьями. На сегодняшний день в Республике в результате добывающей деятельности выявлено 31987 гектаров нарушенных земель, из которых 29965 гектаров находятся в эксплуатации. Кроме того, в регионах выявлено 2493 гектара нарушенных земель, возникших в результате проведения инженерной инфраструктуры, рытья дренажных каналов, халатного отношения землепользователей и по другим причинам. В условиях, когда эффективное использование сельскохозяйственных земель является приоритетной задачей, возникает необходимость в разработке научно обоснованных предложений и рекомендаций по усовершенствованию методов дистанционного выявления деградированных участков на орошаемых сельскохозяйственных землях с использованием современных геоинформационных технологий.

